

**RUS VA INGLIZ TILLARIDAGI FE'L ZAMONLARINING O'XSASH
VA FARQLI XUSUSIYATLARI**

**СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ВРЕМЕННЫХ ФОРМ ГЛАГОЛОВ В
РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

**SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF VERB TENSES IN RUSSIAN
AND ENGLISH**

Ilmiy rahbar: Xamidova Maxbuba Kaxarovna

*Farg'ona davlat universiteti rus
tili metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

Xo'jayeva Shahzodaxon Sherzodjon qiz

*Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari
fakulteti, 1-bosqich, 24.108-guruh
talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus va ingliz tillaridagi fe'l zamonlari o'rganiladi hamda ular o'rtasida taqqoslov tahlil olib boriladi. Rus tilida uchta asosiy zamon mavjud: hozirgi, o'tgan va kelasi, ingliz tilida esa o'n ikki zamon shakli mavjud. Muallif har ikkala tilda harakatning zamoni qanday ifodalanishini tahlil qiladi hamda bu holatni o'xshash va farqli jihatlari bilan misollar asosida yoritadi. Ayniqsa, xorijiy til o'rganuvchilari uchun bu zamonlarni tushunishdagi murakkabliklarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — grammatik zamonlarning gap tuzilishiga va kontekstni tushunishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishdir.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ времён глаголов в русском и английском языках. Русский язык имеет три времени: настоящее,

прошедшее и будущее. В английском языке насчитывается двенадцать временных форм. Основное внимание уделяется способам выражения времени действия, а также различиям в грамматических структурах. Приводятся примеры, иллюстрирующие употребление времён в контексте. Отдельно рассматриваются трудности восприятия временных форм при изучении иностранного языка. Подчёркивается роль грамматического времени в построении высказываний и понимании смысла высказывания.

Annotation. The article presents a comparative analysis of verb tenses in Russian and English. Russian has three tenses: present, past, and future. English, in contrast, uses twelve different tense forms. The focus is on how each language expresses time through grammar and the structural differences involved. Examples illustrate tense usage in context. Particular attention is given to the challenges learners face when understanding tense systems in a foreign language. The role of grammatical tense in constructing meaning and sentence structure is also highlighted.

Kalit so‘zlar: fe‘l zamonlari, rus tili, ingliz tili, taqqosloviy tahlil, hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon, grammatik farqlar, grammatik zamon, kontekst, fe‘l shakllari, gap tuzilishi, fikr mazmuni, til o‘rganish, tushunishdagi qiyinchiliklar.

Ключевые слова: времена глаголов, русский язык, английский язык, сравнительный анализ, настоящее время, прошедшее время, будущее время, грамматические различия, грамматическое время, контекст, глагольные формы, структура предложения, смысл высказывания, изучение языка, трудности восприятия.

Keywords: verb tenses, Russian language, English language, comparative analysis, present tense, past tense, future tense, grammatical differences, grammatical tense, context, verb forms, sentence structure, meaning of expression, language learning, comprehension difficulties.

Rus tilida fe'l zamonlari tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ular harakatning qaysi davrda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Rus tilida uchta asosiy fe'l zamon mavjud: hozirgi zamon, o'tgan zamon va kelasi zamon. Har bir zamon turli holatlarda qo'llaniladi va harakatning vaqtiga qarab farq qiladi.

Hozirgi zamon harakatning ayni paytda amalga oshayotganligini yoki doimiy ravishda sodir bo'lishini ifodalaydi. Masalan, Я читаю книгу (Men kitob o'qiyman) jumlasida hozirgi zamon shakli o'qish harakati ayni damda amalga oshirilayotganini bildiradi. Yana bir misol, Ты работаешь в школе? (Sen maktabda ishlaysanmi?) savoli hozirgi zamon shaklida berilgan. Shuningdek, hozirgi zamonning davomiy holatini ifodalash mumkin, masalan, Я читаю книгу сейчас (Hozirda kitob o'qiyotganim). Bu holatda harakatning ayni paytda davom etayotganligi ta'kidlanadi.

O'tgan zamon esa harakatning o'tmishda sodir bo'lganligini bildiradi. O'tgan zamon fe'lining o'tmishda bo'lgan shakli orqali ifodalanadi. Masalan, Я читал книгу вчера (Men kecha kitob o'qigan edim) jumlasida o'tmishda sodir bo'lgan harakatni ko'rsatmoqda. Yana bir misol: Он работал в школе (U maktabda ishlagan) bu jumla o'tmishda biror vaqt davomida amalga oshirilgan ishni bildiradi. O'tgan zamonning aniq vaqtini ko'rsatish mumkin, masalan, Я читал книгу два часа назад (Men ikki soat oldin kitob o'qigan edim). Bu yerda harakatning aniq vaqti ko'rsatilgan.

Kelasi zamon esa kelajakda amalga oshiriladigan harakatni ifodalaydi. Kelasi zamon oddiy va murakkab shakllarda bo'lishi mumkin. Oddiy kelasi zamon буду yordamchi fe'li bilan hosil qilinadi. Masalan, Я буду читать книгу завтра (Men ertaga kitob o'qiyman) jumlasida kelajakda sodir bo'ladigan harakatni ifodalaydi. Kelasi zamon harakatining davomiyligini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Masalan, Завтра в это время я буду читать книгу (Ertaga shu vaqtda men kitob o'qiyman). Bu yerda kelajakdagi harakatning davomiyligi ta'kidlanadi. Demak, rus tilida fe'l zamonlari harakatni va uning vaqtini aniq belgilashga yordam beradi. Hozirgi zamon harakatning ayni paytda yoki doimiy ravishda sodir bo'lishini, o'tgan zamon o'tmishda sodir bo'lgan harakatni, kelasi zamon esa kelajakda amalga oshiriladigan harakatni

ko'rsatadi. Bu zamonlarning har biri o'z o'rnida va o'z vaqtida ishlatiladi, va ular orasidagi farqni tushunish, rus tilini o'rganishda juda muhimdir.

Ingliz tilida fe'l zamonlari grammatikani o'zlashtirishda eng muhim bo'limlardan biri hisoblanadi. Tilni to'g'ri ishlatish, fikrni vaqt bilan bog'lab ifodalash uchun zamonlarni to'g'ri tanlash zarur. Ingliz tilida asosan uchta asosiy zamon mavjud: hozirgi, o'tgan va kelasi. Har biri o'z ichida oddiy (simple), davomiy (continuous), tugallangan (perfect) va tugallangan davomiy (perfect continuous) shakllarga ega.

Hozirgi zamon (Present Tense) ko'pincha hozirda sodir bo'layotgan yoki muntazam amalga oshiriladigan ishlar uchun ishlatiladi. Masalan, odam har kuni ertalab soat yettida uyg'onishini aytmoqchi bo'lsa, "He wakes up at 7 a.m. every day" deb aytadi. Yoki ayni paytda nimalar qilinayotganini bildirish uchun "She is studying English now" jumlasini ishlatiladi. Birinchi misolda harakat har kuni takrorlanadi, ikkinchisida esa ayni hozirgi daqiqadagi faoliyat tasvirlangan.

O'tgan zamon (Past Tense) esa avval sodir bo'lgan harakatlar haqida so'z yuritadi. Oddiy o'tgan zamonda harakat yakunlangan bo'ladi: "We visited Samarkand last summer" — demak, sayohat o'tgan yozda bo'lgan va tugagan. Davomiy o'tgan zamon esa biror vaqtda davom etgan harakatni bildiradi, masalan: "I was reading a book when the phone rang". Bu yerda telefon jiringlaganida kitob o'qish harakati davom etayotgan edi.

Kelasi zamon (Future Tense) esa hali amalga oshmagan, lekin rejalashtirilgan yoki kutilyotgan voqealarni bildiradi. Oddiy shaklda "I will travel to London next year" — demak, bu reja kelasi yil uchun. Davomiy kelasi zamonda esa ma'lum vaqtda davom etadigan harakat tasvirlanadi: "This time tomorrow, I will be flying to New York". Bu jumlada kelajakda ma'lum paytda sodir bo'layotgan harakat haqida so'z ketmoqda. Ingliz tilidagi fe'l zamonlari voqealarni aniq vaqtga bog'lab ifodalashda

muhim rol o'ynaydi. Har bir zamonni to'g'ri tushunish va joyida qo'llash, og'zaki va yozma nutqda aniq va tushunarli bo'lishni ta'minlaydi.

Rus va ingliz tillaridagi fe'l zamonlari grammatik tizimda o'ziga xos o'rin tutadi. Har ikkala til voqelikni vaqt bilan bog'lashda fe'l zamonlariga tayansa-da, ularni ifodalash usuli va tizimi sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida fe'l zamonlari tizimi murakkabroq bo'lib, 12 ta zamonni o'z ichiga oladi. Bu zamonlar hozirgi, o'tgan va kelasi zamon asosida quriladi va har biri oddiy (Simple), davomiy (Continuous), mukammal (Perfect) va mukammal davomiy (Perfect Continuous) shakllarga ega. Bu orqali harakatning boshlangan, davom etayotgan yoki tugallanganligini aniq ifodalash mumkin. Masalan, "I have been studying English for two hours" jumlasida harakat uzoq vaqt davom etgani va hali ham davom etayotgani bildiriladi. Rus tilida esa zamonlar soni kamroq: uchta asosiy zamon — hozirgi (настоящее), o'tgan (прошедшее) va kelasi (будущее) mavjud. Ammo bu tilda harakatning davomiyligi yoki tugallangan-tugallanmaganligi fe'lning ko'rinishi (совершенный/несовершенный вид) orqali ifodalanadi. Masalan, "Я делал домашнее задание" — davomli harakat, "Я сделал домашнее задание" — tugallangan harakat. Demak, ingliz tili grammatik zamonni aniqlik bilan ko'rsatishga urg'u berar ekan, rus tili esa harakatning tugallangan yoki davomiyligiga asoslanadi. Shuning uchun tarjima yoki o'rganishda bu farqlarni hisobga olish juda muhimdir.

Misollar orqali rus va ingliz fe'l zamonlarining qiyosiga kelsak, fe'l zamonlari faqat grammatik tuzilmada emas, balki kontekstda ham farq qiladi. Masalan, ingliz tilida "I was reading when she called" jumlasida o'tgan zamondagi davomiy harakatni bildiradi. Rus tilida bu fikr "Я читал, когда она позвонила" shaklida ifodalanadi. Bu yerda "читал" fe'li o'tgan zamonning davomiy shaklida ishlatilgan. Yana bir misol: "I will have finished my homework by 6 PM" — bu ingliz tilida mukammal kelasi zamon bo'lib, ma'lum vaqtdan oldin tugallanadigan harakatni bildiradi. Rus tilida esa bu jumla "Я закончу домашнее задание к шести" shaklida ifodalanadi. Rus tilida mukammal zamon alohida shaklda mavjud emas, shuning uchun "закончу" fe'li va "к

шести” iborasi bilan mazmun beriladi. Bu misollar rus tilida fe’l zamonini bilan bir qatorda harakatning ko‘rinishi va kontekstdagi so‘zlar orqali ma’no berilishini, ingliz tilida esa zamon shakli juda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, rus va ingliz tillaridagi fe’l zamonlari harakatning vaqt bilan bog‘liqligini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tili murakkab zamon tizimiga ega bo‘lib, harakatning davomiyligi va tugallanganligini aniq ifodalaydi. Rus tilida esa bu ma’nolar zamon va fe’lning ko‘rinishi orqali beriladi. Shuning uchun har ikki tilni o‘rganishda nafaqat grammatik qoidalarni, balki kontekstni ham chuqur tahlil qilish zarur. Bu farqlarni chuqur o‘rganish tarjima aniqligini va til o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О. С. – Грамматика современного русского языка
2. Azar B. S. – Understanding and Using English Grammar
3. Murphy R. – English Grammar in Use
4. Розенталь Д. Э. – Русский язык. Практическая грамматика
5. Шанский Н. М. – Краткий грамматический справочник по русскому языку
6. Side R., Wellman G. – Grammar and Vocabulary for Cambridge Advanced and Proficiency
7. Thomson A. J., Martinet A. V. – A Practical English Grammar